
Shoxruxbek Shokirov O'zbekiston tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i etib tayinlandi

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i bilan Shokirov Shoxruxbek Baxtiyorjon o'g'li O'zbekiston tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Bugun tuman hokimligida bo'lib o'tgan yig'ilishda Shoxruxbek Shokirov jamoatchilikka tanishtirildi.

Shoxruxbek Shokirov 1989 yilda O'zbekiston tumanida tug'ilgan. Qo'qon davlat pedagogika institutini tamomlagan.

Mehnat faoliyatini 2013 yilda O'zbekiston agrosanoat kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi vazifasidan boshlagan. 2015-2019 yillar davomida O'zbekiston agrosanoat kasb-hunar kollejida bo'lim boshlig'i, O'zbekiston qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji direktor o'rinbosari vazifalarida faoliyat ko'rsatgan.

2019 yildan tayinlovga qadar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi O'zbekiston tuman bo'linmasi rahbari lavozimida ishlab kelayotgan edi.

2025-01-28 17:52:35